ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 81’271(045) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a113**

O‘ZBEK TILIGA FORS TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR VA GRAMMATIK KOTEGORIYALAR

СЛОВА И ГРАММАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ЗАИМСТВОВАННЫЕ С ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

WORDS AND GRAMMAR CATEGORIES BORROWED FROM PERSIAN INTO UZBEK LANGUAGE

Murodov Normurod Toxirovich[1]

[1]**Murodov Normurod Toxirovich** – Termiz davlat universiteti,Tojik filologiyasi va sharq tillar kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida fors tili o‘z o‘rniga egaligi. Fors tilidan nafaqat so‘zlar balki ba’zi grammatik elementlar kirib kelganligi aytib o‘tilgan. Ba’zi fe’l asoslari o‘zbek tilida ot va sifat so‘z yasovchi qo‘shimchalar sifatida, joy nomini ifodalfydigan so‘zlar, forscha izofaviy birikmalar va sonlar o‘zbek tilida keng qo‘llanishi misollar asosida ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbek tilida boshqa tillardan olingan va o‘zbek xalqining moddiy va madaniy boyligiga aylanib qolgan keng iste’molda bo‘lgan barqaror so‘z va iboralar qaysi tildan kirib kelganidan qat’iy nazar o‘zbek tilidagi faol so‘zlar guruhiga mansub so‘zlar hisoblanadi.

O‘zbek tili o‘zining uzoq tarixi davomida o‘z leksikasini avvalo ichki imkoniyatlar hisobiga qolaversa boshqa tillardan kirib o‘zlashib qolgan so‘zlar hisobiga rivojlantirgan va takomillashtirgan. O‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at tarkibidan o‘rin olgan va uning grammatik qoidalariga buysundirilgan. Bu so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarini o‘rganish o‘zbek tili va mumtoz adabiyotimizni chuqurroq o‘rgarishga imkon yaratadi.

Аннотация

В статье рассматривается роль персидского языка в историческом развитии узбекского языка. Говорят, что не только слова, но и некоторые грамматические элементы произошли от персидского языка. Некоторые глагольные основы узбекского языка как существительные и прилагательные, слова, выражающие географические названия, персидские суффиксы и числа, широко используются в узбекском языке.

В узбекском языке к группе активных слов в узбекском языке относятся устойчивые слова и словосочетания, заимствованные из других языков и ставшие материальным и культурным достоянием узбекского народа, получившие широкое употребление, независимо от того, из какого языка они произошли.

За свою долгую историю узбекский язык развивался и совершенствовал свой словарный запас, прежде всего, за счет внутренних возможностей, а также за счет слов, впитавшихся из других языков. Слова, перешедшие в узбекский язык из персидского языка, входят в словарный состав узбекского языка и подчиняются его грамматическим правилам. Изучение прямого и переносного значения этих слов позволяет глубже изучить узбекский язык и нашу классическую литературу.

Absract

This article discusses the role of Persian in the historical development of the Uzbek language. It is said that not only words but also some grammatical elements came from Persian. Some verb bases in Uzbek as nouns and adjectives, words expressing place names, Persian suffixes and numbers are widely used in Uzbek.

In the Uzbek language, the group of active words in the Uzbek language includes constant words and phrases borrowed from other languages and constituting the material and cultural values of the Uzbek nation, widely used, independent nouns, from which they are derivatives of the language.

Over its long history, the Uzbek language has developed and improved its vocabulary, primarily due to internal capabilities, as well as due to words absorbed from other languages. Words that have passed into the Uzbek language from the Persian language are included in the vocabulary of the Uzbek language and obey its grammatical rules. Изучение прямого и переносного значения этих слов позволяет глубже изучить узбекский язык и нашу классическую литературу.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, fors tili, forscha fe’l asoslari, hozirgi zamon sifat yasovchilar, sonlar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, izofali so‘z birikmalari, joy nomlari.*

Ключевые слова: *узбекский язык, персидский язык, персидские глагольные основы, современные прилагательные, числа, словообразовательные наречия, суффиксы, топонимы.*

Key words: *Uzbek language, Persian language, Persian verb bases, modern adjectives, numbers, word-formative adverbs, suffixes, place names.*

ADABIYOTSHUNOSLIK

KIRISH

Til insonlarning yashash sharoiti ta’siri ostida doimo o‘zgarishi va rivojlanishi tabiiy hodisadir. Biror xalq yoki qavmning madaniyatidagi o‘zgarishi uning tiliga ham bevosita yoki bilvosita ta’sir qiladi. Bundan o‘zbek millati va uning tili ham mustasno emas. O‘zbek xalqi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida u bilan qo‘shni yashagan millat va elatlar bilan doimiy ravishda aloqada bo‘lgan. Turli millat va elatlar orasida madaniy aloqalarni mustahkamlash va uning doimiyligini ta’minlash bevosita tilga bog‘liq ekanligi dunyo tarixida isbotlangan. O‘zbek xalqi bilan qo‘shni yashagan xalqlar orasidagi o‘zaro aloqa o‘zbek tilining rivojlanishiga va so‘z boyligini ortishiga katta hissa qo‘shgan. Turkiy qavmlar bilan yaqin madaniy aloqada bo‘lib ba’zan bir davlat tarkibida yashagan xalqlardan biri forsiyzabon xalqlardir. Bu ikki xalqning madaniy aloqalari mobaynida o‘zbek tilida so‘zlashuvchi xalq fors tilidan ko‘pgina forsiy (grammatik kotegoriyalar o‘zlashgan)so‘zlarni olgan. Shu yo‘l bilan o‘z lug‘at tarkibini yanada boyitganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari ko‘plab ilmiy ishlarda o‘z aksini topgan. Sobiq ittifoq davri o‘zbek tilshunosligida o‘zlashma so‘zlar tadqiqiga doir ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirildi. 1981-yilda O‘zSSR FA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan “O‘zbek tili leksikologiyasi” nomli monografik tadqiqot yaratildi [4, 146]. Monografiyaning “O‘zbek tili leksikologiyasi ijtimoiy-tarixiy asoslari” nomli bobida o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, o‘zbek tilining asosiy lug‘at fondi, asosiy lug‘at fopdinnng til lug‘at tarkibidan farqi, o‘zbek tili leksikologiyasining tarixiy-etimologik qatlamlari, forscha-tojikcha o‘zlashma so‘zlar qatlami, arabcha o‘zlashma so‘zlar qatlami, ruscha-internatsional o‘zlashma so‘zlar qatlami, o‘zbek tili leksikologiyasining tarixiyfunksiopal, xususiyatlari, eski so‘zlar qatlami, yangi so‘zlar qatlami kabi masalalar atroflicha yoritib berildi [4, 158].

U.Qo‘ziyevning “O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar tadqiqi” nomli monografiyasining ikkinchi bobi to‘liq zamonaviy o‘zbek lug‘atchiligidagi o‘zlashma so‘zlar tahliliga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning asliyat bilan semik muvofiqligi ko‘rib chiqilgan, shuningdek, izohli lug‘atlardagi o‘zlashma so‘zlar tasniflangan. Muallif o‘zlashma so‘zlarning ikki va besh jildli izohli lug‘atlarda talqin qilinishidagi ilmiy xolislik, semantik to‘liqlik kabi farqli jihatlar va ularning sabablarini ilmiy jihatdan asosli yoritgan. Ushbu tadqiqot ishida asosiy urg‘u arab va fors-tojik tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga qaratilgan [Qo‘ziyev, 2016].

Asosiy qism. O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar. O‘zbek tilining tarixiy traqqiyoti davomida arab va fors tillari o‘z o‘rniga ega. Bu tillardan nafaqat so‘zlar balki ba’zi grammatik elementlar kirib kelgan. Shulardan biri o‘zbek tilidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar. Ba’zi fors tilidan olingan so‘z yasovchi qo‘shimchalar, fors tilida fe’l asosi hisoblanadi. O‘zbek tilida esa so‘z yasovchi qo‘shimcha qilib olinadi.

Soxta fors tilidagi soxtan(qurmoq, yasamoq) fe’lining o‘tgan zamon asosi soxtga –a(e) o‘tgan zamon sifatdoshi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan bo‘lib, qurilgan, tuzilgan, yasama ma’nolarini anglatadi. ***Sozanda*** so‘zi soxtan (qurmoq, yasamoq) fe’lining hozirgi zamon asosi ***soz*** ga -anda/ande hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan [5,556].

O‘bek tilida ba’zi ot yasovchi qo‘shimchalar: Didan(ko‘rmoq) fe’lining hozirgi zamon fe’li asosi ***-bin***; folbin, durbin ... kabi o‘zbekcha so‘zlar yasalgan. **Didan(ko‘rmoq)** fe’lining o‘tgan zamon asosi ***did*** bo‘lib, bu asosdan **dida (diydasi qattiq)**, fors tilida o‘tgan zamon asisiga –a/e o‘tgan zamon sifatdoshi qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan. -bon: darvozabon, soyabon, tarozibon, xazinabon.

Bozidan (o‘ynamoq) hoz. zam. asos. ***–boz:*** dorboz, masxaraboz, qimorboz.

Go‘ftan (aytmoq) hoz. zam. asos -**go‘y(go‘)**: maslahatgo‘y, kalimago‘y, nasihatgo‘y. Doshtan(bor, mavjud) hoz. zam. asos **–dor**: muhrdor, chorvador. **Do‘xtan**(tikmoq) hoz. zam. asos **-do‘z**: etikdo‘z, kashtado‘z, zardo‘z. -iston: O‘zbekiston, guliston. Kashidan(tortmoq, chekmoq, tashimoq) hoz.zam. asos -**kash:** qalamkash, suratkash, aravakash. Kovidan(kovlamoq, qazimoq) hoz.zam. asos -**kov:** go‘rkov. Naveshtan (yozmoq) hoz.zam. asos **-navis:** romannavis, tarixnavis, voqeanavis. Po‘xtan(pishirmoq, pishmoq) hoz.zam. asos **-paz:** oshpaz, kabobpaz, somsapaz.

Soxtan (yasamoq, qurmoq, tuzatmoq) hoz.zam. asos **-soz:** soatsoz, kemasoz. **Fo‘ruxtan** (sotmoq) hoz.zam. asos **-furush:** baliqfurush, nosfurush. **Xondan**(o‘qimoq) hoz.zam. asos **-xon:** kutobxon, she’rxon. X**o‘**rdan(emoq, ichmoq) hoz.zam. asos **-xo‘r:** merosxo‘r, nonxo‘r, oshxo‘r.

Shenoxtan(tanimoq, bilmoq) hoz.zam. asos **-shunos:** tilshunos, adabiyotshunos, uslubshunos [1,234].

O‘bek tilida ba’zi sifat yasovchi qo‘shimchalar: -ba/bo-: badavlat, basovlat, bama’ni, boodob. **Bad**-(yomon): badhazm, badbaxt, badnafs, badbashara, badaxloq**. -bar:** barqaror, barkamol, barhayot. Baxshidan(bag‘ishlamoq, kechirmoq) hoz.zam. asos **-baxsh:** hayotbaxsh, orombaxsh, shifobaxsh. **Be-** beg‘ubor, bedavo, betashvish, bexosiyat. **Didan**(ko‘rmoq) hoz.zam. asos **-bin:** kaltabin, nekbin, badbin. Bozi kardan(o‘ynamoq) hoz.zam. asos **-boz:** safsataboz, va’daboz, xotinboz**. -bon:** mehribon**.** -bop: ommobop, qishbop. **Guftan** (aytmoq, demoq) hoz.zam. asos **-go‘y:** xushomadgo‘y.

Donestan(bilmoq) hoz.zam. asos **-don:** bilimdon, gapdon, qadrdon. **Doshtan**(bor,mavjud) hoz.zam. asos **-dor:** vafodor, aloqador, daxldor. **Kashidan**(tortmoq, chekmoq, tashimoq) hoz.zam. asos **-kash:** dardkash, dilkash, zahmatkash, jafokash. Koshtan(ekmoq) hoz.zam. asos **-kor:** zulmkor, isyonkor, fidokor. **Omixtan**(aralashtirmoq, qo‘shmoq) hoz.zam. asos **-omiz:** hayratomiz, haqoratomiz, shikoyatomiz. **Parastidan**(sig‘inmoq, izzat qilmoq, e’zozlamoq) hoz.zam. asos **-parast:** xalqparast, mansabparast, xayolparast.

Parvardan(tarbiyalamoq, etishtirmoq, parvarish qilmoq) hoz.zam. asos **–parvar:** adolatparvar, insonparvar. **So‘rudan**(kuylamoq, ashula aytmoq) hoz.zam. asos **-saro:** motamsaro. **Xo‘rdan** (emoq, ichmoq) hoz.zam. asos **-xo‘r:** tekinxo‘r, poraxo‘r

Forscha izofaning o‘zbek tilida qo‘llanishi. O‘zbek tili sintaksisining so‘z birikmasi qismida fors tilidan kirib kelgan ko‘pgina so‘zlar uchraydi. Ularning aksariyatini o‘zbek tilida sodda so‘z sifatida o‘rganiladi. Lekin quyidagi so‘zlarni fors tilida **izafa** deb ataladi. Fors tilida aniqlovchi bilan aniqlanmish, qaratqich bilan qaralmishning bir **–e** orqali bog‘lanishi izofa deyiladi. [2, 43].

Hozirgi zamon o‘zbek tilida ko‘plab izofali birikmalar uchraydi. Masalan; dard-i bedavo, dard-i sar, tarjima-i hol, nuqta-i nazar...

Ammo klassik adabiy tilimizda izofali birikma jonli grammatik birikma sifatida keng tarqalgan edi. Klassik adabiy tilimizda yozilgan yodgorliklarni, badiiy asarlarni o‘qib, tushunib olish uchun boshqa bir qator talablar bilan birga fors-tojik izofasini ham jonli grammatik shakli sifatida bilib olish kerak bo‘ladi.

Fors-tojik izofasini o‘rganishning bir qator murakkablik tomonlari bor. Bular quyidagilar:

1. Izofali birikma tarkibidagi so‘zlarning tartibi o‘zbek tilidagidek emas. Bunday birikmada aniqlanmish oldin keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. O‘zbek tilida avval aniqlovchi, so‘ngra aniqlanmish keladi. Masalan;

dardi bedavo nuqtai nazar

davosiz dard nazar nuqtasi

2. Eski o‘zbek yozuvida aksariyat hollarda fors izofasi aks ettirilmaydi, ya’ni izofa yozuvda ko‘pincha biror bir belgi bilan ko‘rsatilmaydi.

Masalan, ofat-i jon birikmasi arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvida

عافتِ جانtarzida yoziladi. Bu misolda ofat va jon so‘zlari o‘zaro birikib izofali birkma hosil qilgan. Izofa ko‘rsatkichi bo‘lgan ***e*** yozuvda zir orqali ifodalangan.

Aniqlanmish qanday tovush bilan tugallanganligiga qarab, izofa bir necha fonetik

holatlarga ega bo‘ladi;

a) Agarda aniqlanmish undosh harflardan biriga tugallangan bo‘lsa izofa zir belgisi bilan ifodalanadi va i tarzida talaffuz etiladi. Fors tilida esa -e tarzida talaffuz etiladi. Zir belgisi yozuvda tushib qoladi, lekin har doim talaffuzda saqlanadi.

برادرِ عزیز birodari aziz aziz do‘st

دردِ سر dardi sar bosh og‘rig‘i

عاشقِ زارoshiqi zor zor (bo‘lgan) oshiq

دردِ بیدراdardi bedavo davosiz dard

b) Agarda aniqlanmish a unli tovushi bilan tugallangan bo‘lsa, izofa ء hamza belgisi orqali ifoda etilib, i tarzida talaffuz qilinadi. Hamza belgisi yozuvda tushub qoladi.

والیدهٔ محترمه volidai muhtarama muhtaram ona

ترجمهٔ حال tarjimai hol tarjimai hol(holimning tarjimasi)

نقتهٔ نظر nuqtai nazar nazar nuqtasi

آیینهٔ جهان oynai jahon jahonning oynasi

v) Agarda aniqlanmish o, u unli tovushlaridan biriga tugallangan bo‘lsa, izofa ى-yo

harfi orqali ifoda etilib, i tarzida talaffuz qilinadi.

روی زمینruyi zamin yer yuzi

آشنایی مهربان oshnoyi mehribon mehribon o‘rtoq

صدایی تاشکند sadoyi Toshkand Toshkent ovozi

بوی گلbo‘yi gul gul hidi

Dardi bedavo-tuzalmas dard, mardi maydon- maydonning yigiti, ruyi siyoh- yuzi qora, labi xandon- kulayotgan lab, Saddi Iskandari-Iskandar devori, mardi kor- ish kishisi, obi dida-ko‘z yoshi(suvi), ruye ob-suvning yuzasi, ofati jon-jonning ofati, mushki anbar-qora hid taratuvchi, go‘nohi kabir-katta gunoh, g‘znai munavvara- nurli g‘azna, boloyi nafs, amri ma‘ruf-diniy o‘git, zoti sharif-muqaddas zot, piri murshid-to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi(keksa), fasli bahor-bahor fasli, po‘shti panoh-homoyachi, xoki po- oyoqning tuprig‘i, luqmai halol- halol luqma, oromi jon- jonning oromi, bulbuli guyo- gapiruvchi bulbul, risolai muborak-muborak xat, sarvari koinot- koinotga yo‘l boshlovchi, ilmi urfon-ilm ahli, vaziri a’zam- buyuk ishonchli vazir, arkoni davlat- davlat arbobi, chehrai shams-quyoshga o‘xshash yuz, sultoni salotin-sultonlar sultoni, jumlai mo‘min-musulmonlar ahli, hakimi hoziq-o‘tkir tabib. O‘zbek tilida mazkur izofiy biriklalar ...va h.k. uchraydi. O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari fors izofasidan xabardor bo‘lsalar so‘zlarning ma’nolarini to‘g‘ri anglaydilar va qo‘llaydilar.

O‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlar ma’nosi. O‘zbek tilidagi **Xandon(kuluvchi)** so‘zi fors tilidagi ***xandidan(kulmoq)*** fe’lining o‘tgan zamon asosi ***xand*** ga hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi ***-on*** ni qo‘shish orqali yasalgan.

Obi dida(ko‘z yoshi) birikmasidagi ***dida*** so‘zi fors tilidagi ***didan(ko‘rmoq)*** fe’lining o‘tgan zamon asosi ***did*** ga o‘tgan zamon sifatdoshi qo‘shimchasi ***–a/e*** ni qo‘shish orqali yasalgan. Dida fors tilida ko‘radigan ma’nosini anglatadi.

O‘ziga bino qo‘ygan(faqat o‘zini ko‘ruvchi) birikmasidagi ***bino*** so‘zi fors tilidagi ***didan(ko‘rmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***bin*** ga hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi ***–o*** ni qo‘shish orqali yasalgan. ***bino*** fors tilida ko‘ruvchi ma’nosini anglatadi.

Rahnoma(yo‘l ko‘rsatuvchi) so‘zi fors tilida ikki so‘zni qo‘shilishidan hosil qilingan. ***Rah(yo‘l)*** so‘ziga ***namudan(ko‘rsatmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***namo*** ning qo‘shilishi orqali hosil qilingan.

Rahbar(yo‘ldan olib yuruvchi) so‘zi fors tilida ikki so‘zni qo‘shilishidan hosil qilingan. ***Rah(yo‘l)*** so‘ziga ***bo‘rdan(olib bormoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi **bar** ning qo‘shilishi orqali hosil qilingan.

Dono(biluvchi) so‘zi fors tilidagi ***donestan(bilmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***don*** ga hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi ***–o*** ni qo‘shish orqali yasalgan.

Bulbuli guyo(gapiruvchi bulbul) birikmasidagi guyo so‘zi fors tilidagi ***go‘ftan*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***gu/guy*** ga hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi ***–o*** ni qo‘shish orqali yasalgan.

Sartarosh so‘zi fors tilida ikki so‘zni qo‘shilishidan hosil qilingan. ***Sar(bosh)*** so‘ziga ***taroshidan(qirmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***tarosh*** ning qo‘shilishi orqali hosil qilingan.

Chorva mollari so‘zidagi ***chorva*** so‘zi farscha ***chor(to‘rt)*** so‘ziga ***po(oyoq)*** so‘zini qo‘shish orqali hosil qilingan. Fors tilidagi **mol** so‘zi tegishlilikni (-niki) bildiradi. Mollarim Toshkentdan ertaga keladi [2, 44].

O‘zbek tilidagi ***Xonanda(ashula aytuvchi)*** so‘zi forscha ***xondan(o‘qimoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***xon*** ga, ***sozanda(kuylovchi)*** so‘zi forscha ***soxtan(qurmoq, tuzmoq, yasamoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***soz*** ga, guyanda(diktor) so‘zi forscha go‘ftan(aytmoq, gapirmoq) fe’lining hozirgi zamon asosi **gu** ga, parranda(uchuvchi hayvonlar) so‘zi forscha ***paridan(uchmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***par*** ga, daranda(yirtuvchi) so‘zi forscha ***daridan(yirtmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***dar*** ga, ***bozanda(o‘ynovchi)*** so‘zi forscha ***boxtan(o‘ynamoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***boz*** ga, ***navozanda(cholg‘u choluvchi)*** so‘zi forscha ***navoxtan(musiqa asbobini chalmoq)*** fe’lining hozirgi zamon asosi ***navoz*** ga, fors tilidagi hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi ***-anda/ande*** ni qo‘shish bilan yasalgan.

O‘zbek tilidagi ba’zi joy nomlari. Surxondaryo viloyatida ko‘pgina joy nomlari forscha-tojikcha. Biz shunday joy nomlarining ba’zilarning izohini ko‘rib chiqamiz.

Denov forscha, ikki so‘zdan hosil bo‘lgan. ***Deh-qishloq*** so‘ziga ***nav-yangi*** so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. ***Yangi qishloq*** ma’nosini anglatadi.

Sariosiya forscha, ikki so‘zdan hosil bo‘lgan. ***Sar-bosh*** so‘ziga ***osiyo-tegirmon*** so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. ***Tegirmon boshi*** ma’nosini anglatadi.

Pulxokim forscha, ikki so‘zdan hosil bo‘lgan. ***Po‘l-ko‘prik*** so‘ziga ***xok-tuproq*** so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. ***Tuproq ko‘prik*** ma’nosini anglatadi.

Salovat forscha, ikki so‘zdan hosil bo‘lgan. Manbalarda ***Solihodod*** tarzida qo‘llanilgan. ***Solih-sog‘lom*** so‘ziga, ***obod*** so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. ***Sog‘lom kishi tomonidan obod qilingan*** ma’nosini anglatadi.

Xayrobod ikki so‘zdan hosil bo‘lgan. Manbalarda ***yaxshi*** so‘ziga ***obod*** so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. ***Yaxshi kishilar tomonidan obod qilingan*** ma’nosini anglatadi.

Forscha sonlarning o‘zbek tilida qo‘llanishi. Fors tilidagi yak, du, se, chor, panj, shash, haft, hasht, no‘h, dah miqdor sonlar o‘zbek tilida ham qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida ishlatiladigan hafta kunlari musulmon taqvimidan olingan. Musulmon taqvimida haftaning birinchi kuni shanbadan boshlanib jima bilan yakunlanadi. ***Shanba***(kun ma’nosi bor) [6-101].

Yakshanba: yak(bir) so‘ziga shanbani qo‘shish bilan yasalgan. ***Birinchi kun***

Dushanba: Du(ikki) so‘ziga shanbani qo‘shish bilan yasalgan. ***Ikkinchi kun***

Seshanba: Se(uch) so‘ziga shanbani qo‘shish bilan yasalgan. ***Uchinchi kun***

Chorshanba: chor(to‘rt) so‘ziga shanbani qo‘shish bilan yasalgan. ***To‘rtinchi kun***

Payshanba: panj(besh) so‘ziga shanbani qo‘shish bilan yasalgan. ***Beshinchi kun***

Juma so‘zi arabcha jam’(yig‘ish, jam, ko‘plik)....?

Yak(bir)miqdor soni bilan bog‘liq so‘zlar. ***Yakdil(bir fikrli)*** forscha ***yak(bir)*** va ***dil(ko‘ngil)*** so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Yakdona(bir dona) forscha ***yak(bir)*** va ***dona*** so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Yakka bosh(bir o‘zi) forscha ***yak(bir)*** va ***bosh*** forscha budan(bo‘lmoq) fe’lining hozirgi zamon asosi so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Yaktak(bir qavat, astari yo‘q kiyim) forscha ***yak(bir)*** va ***tah(tag, ost)*** so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan

Du(ikki)miqdor soni bilan bog‘liq so‘zlar. ***Duvarak(ikkinchi marta)*** mevali daraxtning bir yilda ikkinchi marta bergan mevasi. Forscha ***du(ikki)***va ***bora(marta)*** so‘zlarini birikishidan hosil bo‘lgan.

Dugoh(ikki payt, ikki joy) Shashmaqomning uchinchi maqomi. Forscha ***du(ikki)*** va ***goh(joy, payt)*** so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Dupoya(ikki oyoqli) ustalarning uchi qirqilgan temir asbobi. Forscha ***du(ikki)*** va ***po(oyoq)*** so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Dugona(ikkita), dutor(kiki torli)sozlarining yasalishida ham du(ikki) so‘zi qo‘llanilgan.

Se(uch) miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar o‘zbek tilida uchraydi.

Sebarga (uch bargli) bargi uch bo‘lakli o‘simlik. Forscha ***se(uch)*** va ***barg*** so‘zlarining birikishidan yasalgan. ***Segoh(uch o‘rinli, uch pardali), sepoya(uch oyoqli), setor(uch torli)***so‘zlarining yasalishida ham ***se(uch)*** miqdor soni ishtirok etgan.

Chor(to‘rt) miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar o‘zbek tilida ko‘pgina uchraydi.

Chorsu(to‘rt taraf) so‘zi forscha chor(to‘rt) va su(taraf) so‘zlarni birikishidan hosil bo‘lgan.

Chorak(to‘rtdan bir) so‘zi forscha chor(to‘rt) va yak(bir) so‘zlarni birikishidan hosil bo‘lgan. Chordevon(to‘rt devor), chor darvish(to‘rt darvish), chor abzal(to‘rt buyum), chor bozor(to‘rt bozor), chorgoh(to‘rt o‘rin- o‘zbek mumtoz kuylaridan birining nomi), chordoq(to‘rt qirrali gumbaz), chorpalak(to‘rt palak), chorpoya(to‘rt oyoqli)so‘zlari ham chor(to‘rt) so‘zi asosida yasalgan.

Panj (besh) miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar.

Oson emas bu maydon ichida turmoq

Nizomiy panjasiga panja urmoq (A. Navoiy).

Panja(beshlik) panj(besh) ***-a*** ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan. Bu yerda panja(beshlik) “Xamsa” ma’nosini ifodalagan.

Panjshanbalik –payshanbalik. ***Shash(olti)*** miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar. **Shashmaqom** ***shash(olti)*** + maqom, ***shesh(olti) besh*** narda o‘yini. **Shashpar** olti uchli (qirrali) to‘qmoq gurzi. Uchiga yumaloq va g‘adir-budur temir o‘rnatilgan tayoq, uzun dastali engil gurzi.

Shashqator – shash(olti) + qator. Olti qator, saf, yonma-yon. **Shashqol** tekis erga tashlab o‘ynaladigan kub shakldagi tosh. **Shashlik** –oltilik, kabob.

Haft(etti) miqdor soni asosida yasalgan so‘zlar. ***Hafta(ettilik)*** so‘zi haft(etti) va ***-a*** ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan yasalgan. Dushanbadan yakshanbagacha(ilgari shanbadan jumagacha) bo‘lgan yetti kecha kunduzni o‘z ichiga olgan vaqt o‘lchov birligi. ***Haftiyak*** (ettidan bir) haft(etti) va (yak)bir miqdor sonlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Qur’onning ettidan bir qismi suralari tanlab olib tayorlangan va o‘tmishda duniy maktablarda xrestomatiya vazifasini bajargan alohida kitobcha. Haft rang(etti xil rang) haft(etti) va rang so‘zlarining qo‘shilishidan yasalgan. Turli rangda gullar solingan, tovlanib turadigan material. Haft rang qog‘az- O‘rta asrlarda Turkiston xonliklarida kosiblar tomonidan ishlab chiqarilganrangli qog‘oz [6, 719].

Hasht(sakkiz) miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar. **Hashtiyak** (sakkizdan bir) vafot etgan kishidan qolgan merosning sakkizdan biri shariat qonuniga ko‘ra marhumning xotiniga tegishi. Hasht(sakkiz)ga yak(bir)sonini qo‘shiish orqali yasalgan. ***Hasht behisht*** birikmasidagi ***hasht(sakkiz) behisht*** so‘zlarini qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

No‘h(to‘qqiz) miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar. No‘h manzar- *no‘h(to‘qqiz) manzar* – to‘qqiz manzara [6, 675].

Dah(o‘n) miqdor soni asasida yasalgan so‘zlar. **Daha** –o‘ntalik, o‘n yillik, o‘n kun. 1) Buxora amirligida o‘nta piyoda askardan iborat bo‘lgan harbiy bo‘linmaning nomi. 2) Ramazon oyida o‘tkaziladigan o‘n kunlik ibodat va u bilan bog‘liq marosim. 3) Ipak qurtining uyquga kirish pallasi.

Dahboshi dah(o‘n) ga **bosh** so‘zini qo‘shish orqali yasalgan. O‘nta sipohning boshchisi. **Dahsar** - dah(o‘n)ga sir so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Botmonning qirqdan biri. O‘tmishda ba’zi hududlarda o‘ttiz ikki kilogramga, ba’zi hududlarda to‘rtdan bir botmonga teng bo‘lgan og‘irlik o‘lchovi. **Dahyak** o‘n hissadan bir hissa. 1) Qo‘qon va Buxoro xonliklarida dehqanlardan etishtirilgan hosilning o‘ndan bir qisminining soliq haqi tariqasida olinishi. 2) Buxoro amirligida vaqf yerlaridan olingan daromadning madrasalarning maxsus imtixonidan o‘tgan mullavachchalariga beriladigan qismi.

O‘zbek tilida jins va ikkilik shakllari. O‘bek tiliga arab tilidan ko‘pgina so‘zlar bilan birga ba’zi o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan jins va ikkilik grammatik kategoriyalar ham kirib kelgan.

Arab tilida ikki grammatik jins mavjud; bular مذكر–muzakkar(erkaklik) va– مؤنث muannas(ayollik) jinsi.

Muannas jinslarning asosiy grammatik belgisi “ة” (-atun) bo‘lib, u so‘z oxiriga qo‘yiladi. Ayol jinsining qo‘shimchasi “ة” -atun o‘zbek tiliga “A” tarzida ayollar ism va familiyalarda keng qo‘llaniladi.

نادره كريماوNodira karimova نادر كريماو Nodir Karimov

كاميله نورالديناو Komila Nuriddinova كاميل نورالديناوKomil Nuriddinov

Arab tilida son kategoriyasi yaxshi rivojlangan. Arablarda birlik va ko‘plikdan tashqari ikkilik shakl ham bor. Ikkilik – ikki shaxs yoki narsaning ifoda qilish uchun maxsus shakldir. Ikkilikdagi ismlar turlanganda bosh kelishikda ان–oni, qaratqich va tushum kelishiklarida َين-ayni shaklida bo‘ladi .O‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlarda –ayn shaklida uchraydi.

Zullisonayn **ذوالسانين** (ikki til sohibi) arabcha zu(egalik), lison(til), -ayn(ikkilik qo‘shimchasi), ***Zulqarnayn*** **ذوالقرنين**(ikki olam yoki shox egasi), ***zulqofiyatayn*** **ذوالقافيتين**-ikki qofiyali(bir misrada ikki so‘zning qofiya bo‘lib kelishi), ***tarafayn*** **طرفين**-ikki taraf so‘zlarida ikkilik shakli qo‘llanilgan. Mazkur so‘zlar o‘zbek tiliga tayyor holda qabul qilingan, lekin o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi so‘zlarning etimologiyasini bilsa yaxshi bo‘lardi.

Ko‘rinadiki o‘zbek tiliga fors tili orqali kirib kelgan so‘zlar asta -sekin shu tilning fonetik va grammatik qoidalariga moslashadi va shu asosda yoziladi, talaffuz qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshqa tillardan olingan va o‘zbek xalqining moddiy va madaniy boyligiga aylanib qolgan keng iste’molda bo‘lgan barqaror so‘z va iboralar qaysi tildan kirib kelganidan qat’iy nazar o‘zbek tilidagi faol so‘zlar guruhiga mansub so‘zlar hisoblanadi.

O‘zbek tili o‘zining uzoq tarixi davomida o‘z leksikasini, avvalo, ichki imkoniyatlar hisobiga qolaversa boshqa tillardan kirib o‘zlashib qolgan so‘zlar hisobiga rivojlantirgan va takomillashtirgan. O‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at tarkibidan o‘rin olgan va uning grammatik qoidalariga buysundirilgan. Bu so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarini o‘rganish o‘zbek tili va mumtoz adabiyotimizni chuqurroq o‘rgarishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdusamatov M. Fors tili. –Toshkent: Sharq, 2007. (Abdusamatov M. Persian language -Toshkent: Sharq, 2007.)

2. Quronbekov A., Vohidova A., Ziyayeva T. Fors tili. –Toshkent: Musiqa, 2006. (Quronbekov A., Vohidova A., Ziyayeva T. Persian language. -Toshkent: Musiqa, 2006.)

3. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. -781 b. (Shamsiyev P., Ibrohimov S. Dictionary of Navoi’s works. - Tashkent: , 1972. - page 781.)

4. Hojiyev A., Muhammadjonova G., Begmatov E., G‘oyibov S., Mullayev T. va Mirtojiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: O‘zSSR Fan nashriyoti, 1981. -315 b. (Hojiyev A., Muhammadjonova G., Begmatov E., G‘oyibov S., Mullayev T. va Mirtojiyev M.Lexicology ofthe Uzbek language. - Tashkent: UzSUR Science publishing house, 1981. - page 315.)

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 1-5-jildlari. “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. –Toshkent, 2006-2008. (An explanatory dictionary of the Uzbek language. 5 volumes, 1-5 volumes. “National Encyclopedia of Uzbekistan ” State Scientific publishing house. - Tashkent, 2006-2008.)

6. Rubinchik Yu. A. Persidsko–russkiy slovar. – Moskva: Ruskiy yazik, 1985. (Rubinchik Yu. A. Persian-Russian dictionary. – Moskva: Russian language, 1985.)